



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2023- YIL YANVAR-SENTABR




NAVOIY VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2023- yilning 1- oktabr holatiga Navoiy viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 1 429 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 421 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 29,5 % i Navoiy shahrida joylashgan.

2023- yil 1-oktabr holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda


Hududlar kesimida



Fuqarolik obyektlarini qurish



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari





Bino va inshootlar qurilishi

Shuningdek, Karmana tumanda 231 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 16,2 %), Qiziltepa tumanida – 215 ta (15,0 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-sentabr uchun)

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida, Navoiy viloyatida jami 4 811,8 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,2 % ni tashkil etdi.




Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 79,3 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 107,5 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 15,7 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 85,8 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 5,0 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 111,8 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 79,1 % i yoki 3 806,8 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 275,0 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 7,2 % ni tashkil etdi.

7,2 %

275,0
mlrd. so‘m

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 2 273,1 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 59,7 % ni tashkil etdi.

59,7 %

2 273,1
mlrd. so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 1 258,7 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 33,1 % ni tashkil etdi.

33,1 %

1 258,7
mlrd. so‘m



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Navoiy shahri (947,9 mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (780,4 mlrd. so'm), Karmana tumani (449,2 mlrd. so'm) va Navbahor tumani (422,6 mlrd. so'm) qayd etildi.

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish
Navoiy viloyati	4 811,8	106,2	3 806,8
<i>shaharlar:</i>			
Navoiy	1 024,5	100,3	947,9
Zarafshon	443,6	71,6	163,7
G'ozg'on	14,1	102,2	3,8
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	79,4	123,8	64,7
Qiziltepa	1 004,3	106,2	780,4
Navbahor	458,7	107,5	422,6
Karmana	486,5	100,5	449,2
Nurota	629,4	158,6	373,1
Tomdi	168,2	2,5 m.	140,9
Uchquduq	86,9	109,6	64,7
Xatirchi	416,2	100,1	395,9




Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – **3 815,9 mlrd. so'm**



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 20,2 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,8 % punktga ko'payidi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning mos davriga nisbatan 18,8 % punktga kamayib, 42,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning mos davriga nisbatan 17,0 % punktga kamayib, 37,4 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida bino va inshootlar qurilishi

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

Maʼlumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Xatirchi tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 86,8 % i), Navbahor tumani (86,0 %) va Karmana tumani (85,7%) da kuzatildi.



Xatirchi tumani
86,8 %




Navbahor tumani
86,0 %



Karmana tumani
85,7%

**2023- yilning yanvar-sentabr oylarida fuqarolik
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari
Korxonalar turlari bo'yicha**

Fuqarolik obyektlarini qurish, mlrd. so'm




Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 23,0 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 6,8 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 77,0 % (6,8 % punktga ko'paydi).

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Ma'lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi G'ozg'on shahar (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 30,1 % i), Konemex tumani (27,9 %) va Nurota tumani (24,0 %)da kuzatildi.



30,1
G'ozg'on shahar



27,9 %
Konemex tumani




24,0 %
Nurota tumani

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, mlrd. so'm




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 14,2 % punktga kamaydi va 5,6 % ni tashkil etdi.

Qolgan 94,4 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 14,2 % punktga ko'paydi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Maʼlumot uchun:
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Gʻozgʻon shahar(hududda bajarilgan qurilish ishlarining 20,1 % i), Uchquduq tumani (9,2 %) va Konemex tumanida (8,2 %) kuzatildi.



20,1 %

Gʻozgʻon shahar



9,2 %

Uchquduq tumani




8,2 %

Konemex tumani

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, mlrd. so'mda



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –

97,7 %

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –


107,2 %

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –

111,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari


Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 956,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 97,7 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,2 % ga kamayib, 19,8 % ni tashkil etdi.


Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Hududlar kesimida mlrd. so'mda




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 50,5 % i to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,4 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 107,2 % ni tashkil etgan holda 2 428,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Hududlar kesimida jamida ulishi % da




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 27,1 % ni yoki 1 427,7 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 111,2 % ni tashkil etdi. Shundan 899,1 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 109,9 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 3 59,7 mlrd. soʻmni va 119,2 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 1 68,9 mlrd. soʻmni va 103,2 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-sentabr oylaridagi hajm, *mlrd. so'mda*



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 331,9 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 4 479,9 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda 6,9 % va 93,1 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: nodavlat mulkchilikidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush xatirchi tumanidada (ushbu hududagi qurilish ishlari umumiy hajmining 94,3 % i), Uchquduq tumanida (ushbu hududagi qurilish ishlari umumiy hajmining 94,1 % i) va G'ozg'on shaharda (ushbu hududagi umumiy qurilish ishlarining 100 % i) qayd etildi.

Qurilish ishlari USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Tel. 79 223-54-73